

Заключение. Формирование коммуникативных грамматических навыков является важной задачей обучения английскому языку на начальном этапе. УМК “Guess What 4” предоставляет эффективные средства для реализации данной цели. Использование коммуникативных методов, игровых технологий и контекстных упражнений способствует успешному усвоению грамматики и развитию речи учащихся.

Список литературы

1. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения. – М., 1991.
2. Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам. – М., 2002.
3. Harmer J. How to Teach English. – London, 2007.
4. Scrivener J. Learning Teaching. – Oxford, 2011.
5. Ur P. Grammar Practice Activities. – Cambridge, 2009.
6. Swan M. Practical English Usage. – Oxford, 2005.
7. Thornbury S. How to Teach Grammar. – London, 1999.
8. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods. – Cambridge, 2001.

SHAXS MULOQOT MADANIYATINING SHAKLLANISHIDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI

Normatov Sanjar Abdug'ani o'g'li

Tayanch doktorant Jizzax davlat pedagogika universiteti, O'zbekiston

sanjarnormatov2991@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sun'iy intellektning shaxs muloqot madaniyatiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Sun'iy intellektning muloqot madaniyatiga ijobiy ta'siri bilan bir qatorda, undan me'yoridan ortiq foydalanish tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlari ham tahlil etilgan. SI texnologiyasidan ongli va maqsadli foydalanish madaniyatini shakllantirish, uni insonning o'rnini bosuvchi kuch sifatida emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qabul qilish va shu asosda undan to'g'ri foydalanishni o'rgatish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, muloqot madaniyati, fikriy qaramlik, nutq uslubi, ijtimoiy ko'nikmalar, til xilma-xilligi, raqamli texnologiyalar, ta'lim, shaxslararo muloqot, standartlashuv.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN SHAPING PERSONAL COMMUNICATION CULTURE

Normatov Sanjar Abdug'ani o'g'li

Doctoral Candidate Jizzakh State Pedagogical University; Jizzakh, Uzbekistan

sanjarnormatov2991@gmail.com

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the impact of artificial intelligence on personal communication culture. Along with the positive effects of artificial intelligence on communication culture, the potential negative consequences arising from its excessive use are also examined. The necessity of fostering a culture of conscious and purposeful use of AI technology — treating it not as a force that replaces human potential, but as a tool that expands human capabilities — and teaching its proper application on this basis is substantiated.

Keywords: artificial intelligence, communication culture, intellectual dependency, speech style, social skills, linguistic diversity, digital technologies, education, interpersonal communication,

standardization.

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ ЛИЧНОСТИ

Норматов Санжар Абдугани угли

Базовый докторант, Джизакский государственный педагогический университет,

Джизак, Узбекистан

sanjarnormatov2991@gmail.com

Аннотация: Данной статье проведён научно-теоретический анализ влияния искусственного интеллекта на культуру общения личности. Наряду с положительным воздействием искусственного интеллекта на культуру общения, рассмотрены также возможные негативные последствия, возникающие вследствие его чрезмерного использования. Обоснована необходимость формирования культуры осознанного и целенаправленного использования технологий ИИ — восприятия его не как силы, заменяющей человека, а как инструмента, расширяющего его возможности, - а также обучения правильному применению данных технологий на этой основе.

Ключевые слова: искусственный интеллект, культура общения, интеллектуальная зависимость, речевой стиль, социальные навыки, языковое разнообразие, цифровые технологии, образование, межличностное общение, стандартизация.

Bugungi kunda Sun'iy intellekt (SI) tizimlarining kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Xususan ChatGPT, Google Bard, Siri va boshqa SI asosidagi ilovalar yordamida insonlar nafaqat axborot olish, balki muloqot qilishi, biron-bir masala yuzasidan maslahat so'rashi, ichki kechinmalarini u bilan bo'lishish imkoniga ega bo'lmoqda [1, p. 689]. Bu holat esa insonning muloqotga kirishish jarayonida ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, 16–25 yoshdagi yoshlarning 65% dan ortig'i har kuni kamida bitta SI chatbot yoki virtual yordamchi bilan muloqot qiladi [2. elektron resurs]. Bunday holat muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoniga SI ning ta'sirini chuqur ilmiy tahlil qilishni talab etadi. Ushbu maqola ana shu vazifani amalga oshirishga qaratilgan.

SI ning muloqotga ta'sirini tushunish uchun avvalo muloqot madaniyatining ilmiy asoslarini ko'rib chiqish zarur. Psixologiya va pedagogika nuqtayi nazaridan muloqot madaniyati bilim, ko'nikma va malaka, qiziqish asosida shakllanadi. [3, c. 365] Psixolingvistikada esa muloqotni —axborot almashish shu bilan birga fikrlar, his-tuyg'ularini ifoda etish jarayoni sifatida tadqiq etadi. Bizningcha muloqot jarayonida inson suhbatdoshning so'zlarini anglab ma'nosini tushunib, unga mos javob qaytarish orqali o'zaro munosabatlar o'rnatish jarayoni sifatida tariflasak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek Sun'iy intellekt, xususan tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari, inson nutqini tahlil qilish, tushunish va javob berish imkonini beradi. Noam Xomskiyning generativ grammatika nazariyasiga ko'ra, insonning nutqi biologik jihatdan ijtimoiy muhit ta'sirida tabiiy ravishda shakllanadi. [4, p. 5] Sun'iy intellekt ham bugungi kunda neyron tarmoqlari orqali bu qobiliyatni ma'lum darajada o'zlashtirilgani tadqiqotlar natijasida isbotlandi. Bu esa tilning mohiyati va uning Sun'iy tizimlar tomonidan "o'zlashtirish" mumkinligi haqidagi falsafiy prognozlarni isbotladi.

Sun'iy intellekt tizimlari muloqot madaniyatini shakllantirishda bir qancha muhim ijobiy funksiyalarni bajarishi aniqlandi. Jumladan til o'rgatuvchi ilovalar orqali nutq ko'nikmalarini rivojlantirish. Duolingo, Babel, Rosetta Stone kabi SI asosidagi ilovalar foydalanuvchilarga ona tilida va chet tillarda nutq grammatikasi, so'z boyligi, talaffuz me'yorlarini o'rganishda samarali yordam bermoqda. Shu bilan birga ko'plab odamlar, muloqot qilishga qiynaladilar shu kabi muammolardan aziyat chekadiganlar SI chatbotlar bilan muloqot qilish orqali muammoni yengishlari mumkin. [5, b. 18] Ular tanqid qilinishdan va noqulay vaziyatga tushib qolishdan qo'rqmasalar ham bo'ladi. Shu taxlit ularda muloqot ko'nikmasi sekin

asta shakillana boshlaydi. Ayniqsa Grammarly, LanguageTool, Hemingway Editor kabi SI vositalari yozma nutqdagi grammatik, uslubiy va punktuatsion xatolarni real vaqt rejimida aniqlaydi va to'g'rilaydi. Bundan tashqari, ushbu dasturlar matnning aniqligi, o'qilishi, ma'no va mazmunining muvofiqligiga doir qimmatli tavsiyalar beradi. Bundan foydalanuvchilarning savodi yaxshilanadi, bilimi va dunyoqarashi kengayadi.

Biroq tadqiqotlar SI ning ijobiy jihati bilan birga uning salbiy tomonlari borligini ham inkor etmaydi. Eng asosiy muammolardan biri insonni fikriy qaramlikka olib kelishi mumkin. Odamlar oddiy matn terish bo'lsin, insho va bayon yozishmi barchasini SI yordamida bajarishga harakat qila boshlaydi. Foydalanuvchilar mustaqil fikrini bayon qilish o'rniga, SI tomonidan tayyorlangan tayyor matnlardan foydalanishga o'rgana boshlaydilar. Tyton Partners tadqiqotiga ko'ra, 2023-yil mart oyi holatiga ko'ra har uchinchi talaba (27%) Sun'iy intellekt vositalaridan muntazam foydalanib kelmoqda. [6, p. 34] Bu holat shaxsning ma'lum ko'nikmalarni unutishga sabab bo'ladi. Buning oqibatida jummalarni to'g'ri qura olish badiiy va rasmiy yoki bo'lmasa ilmiy terminlarni o'rnida foydalanish kabi hozirda oddiy bo'lgan ishlar kelajakda biz uchun juda murakkab tuyilishi hatto bunday ishni qila oladigan odamlar jamiyatda nihoyatda qadrlanishi mumkin.

Xuddi shunday hodisani biz tarix sahifalarida ham kuzatganmiz. Bir zamonlar xattotlik — husnixat bilan yozish — alohida san'at va kasb hisoblangan. Bosma matbaa ixtiro qilinganidan keyin esa bu ko'nikma asta-sekin o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. Bugun xattotlikni professional darajada egallaganlar haqiqatan ham noyob mutaxassislar sifatida qaraladi. SI bilan bog'liq jarayon ham xuddi shunday yo'l tutishi ehtimoldan xoli emas — faqat bu safar bir ko'nikmani emas, balki inson tafakkurining keng bir qatlamini qamrab olishi mumkin. Muammoning yana bir chuqur qirrasini shundaki, yozish — bu faqat texnik mahorat emas. Yozish orqali inson o'z fikrini tartibga soladi, his-tuyg'ularini anglaydi, dunyoqarashini shakllantiradi. Agar bu jarayon SI zimmasiga o'tkazilsa, inson nafaqat yozish qobiliyatini, balki o'z-o'zini ifodalash va chuqur mulohaza yuritish odatini ham yo'qotishi mumkin. Boshqacha aytganda, SI matn yozib berishi mumkin, ammo u hozircha inson o'rnida o'ylab bera olmaydi. Albatta, bu muammoning yechimi SI dan butunlay voz kechishda emas. Masala — texnologiyadan to'g'ri foydalanishda. Avlodlar kalkulyator ixtiro qilinganida ham xuddi shunday xavotirga tushgan: «Endi hech kim arifmetikani bilmay qo'yadi», deyishgan. Ammo o'qitish tizimi moslashdi — kalkulyatorsiz ishlash ko'nikmasini saqlab, uni vosita sifatida qo'llashga o'rgatdi. SI bilan ham xuddi shunday muvozanatni topish — bu kelgusi ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifalaridan biriga aylanishi muqarrar.

Shuningdek SI bilan muloqot insonlar o'rtasidagi munosabatni susaytirishi mumkin. Odamlar asta-sekin haqiqiy insonlar bilan muloqot qilishni noqulaylik olib keluvchi holat deb hisoblashlari sabab bo'ladi. Chunki SI sabr-toqat bilan odami tinglaydi dardiga sherik bo'ladi uni keskin tanqid qilmaydi. Qarorlari va fikrini hurmat qilgan holda unga munosabat bildiradi. Bu haqda S. Turkl o'zining “Birga yolg'iz” asarida ushbu hodisani chuqur tahlil qilib, texnologiyalardan ortiqcha bog'lanib qolish va insoniy muloqotni qadrlamaslikning ijtimoiy xavflarini ko'rsatib bergan. [7, p. 360] Bu holat ayniqsa yosh avlod uchun jiddiy xavf tug'diradi. Bolalik va o'smirlilik davrida insoniy muloqot orqali shakllanadigan ijtimoiy ko'nikmalar — kelishmovchiliklarni hal qilish, boshqalarning his-tuyg'ularini o'qish, noqulay vaziyatlarda ham muloqotni davom ettira olish — SI bilan munosabatda umuman talab qilinmaydi. Oqibatda bu ko'nikmalar mashq qilinmay, rivojlanmay qoladi. Psixologlar bunday hodisani “ijtimoiy mushaklar atrofiyasi” deb atashadi — ya'ni foydalanilmagan qobiliyat asta-sekin so'nib boradi. Buning ustiga, SI ning doimiy sabr-toqati va tanqidsizligi insonning haqiqiy munosabatlarga bo'lgan tolerantligini pasaytirishi mumkin. Haqiqiy do'st yoki hamkor ba'zan rozi bo'lmaydi, ba'zan no'rin vaqtda murojaat qilinsa, charchagan bo'ladi, ba'zan esa fikrni to'g'ridan-to'g'ri aytadi. Bularning barchasi sog'lom munosabatning tabiiy qismi hisoblandi. Ammo SI ning “ideal suhbatdosh” obraziga ko'nikib qolgan inson uchun bu tabiiy insoniy xususiyatlar vaqt o'tib chidab bo'lmas nuqsonlardek tuyulishi mumkin. Natijada jamiyatda paradoksal holat yuzaga kelishi ehtimoli bor. Texnologik jihatdan bir-biriga qattiq bog'lanib qolgan, ammo ruhiy jihatdan tobora yakkalangan insonlardan yuzaga kelgan jamiyatlar paydo bo'lishi mumkin. Bu esa o'z navbatida jamiyat ichida yolg'izlik, depressiya va o'zaro ishonchsizlik kabi holatlar sababli muammolarni yanada

chuqurlashishiga olib kelishi mumkin— bu sohada olib borilgan tadqiqotlar allaqachon shunday tendensiyalarning ilk belgilarini qayd etmoqda.

Bugungi kunda bilamizki juda ko'p tillar va shevalar bor shu bilan birga har bir odamning o'ziga xos so'zlash usuli bor. Bu holat bir bir -birimiz bilan muloqot qilganimizda yaqqol seziladi ammo Sun'iy intellekt bilan qilingan doimiy muloqot kelajakda nutq uslubining standartlashuviga olib kelishi mumkin. Ko'pgina SI tizimlari nisbatan bir xil, rasmiy va «silliq» nutq uslubida javob beradi. To'g'ri bazi Sun'iy intellekt hissiy emotsional ovozi chat botlar ham bor masalan grok, biroq hatto hissiy va noformal uslubda sozlangan tizimlar ham oxir-oqibat muayyan algoritmik andazalar doirasida ishlaydi. Ularning “individual” uslubi ham millionlab foydalanuvchi uchun bir xil — ya'ni bu ham o'ziga xos standartlashuvning boshqa ko'rinishi, xolos. Til va nutq uslubi esa oddiy muloqot vositasi emas. U kishining kelib chiqishini, madaniyatini, tarbiyasini, hatto kayfiyatini aks ettiradi. O'zbek tilidagi «-ku», «-da», «-ya» kabi yuklamalar, bir xil so'zni turli ohangda talaffuz qilish va gap orasidagi jimlik yoki shoshilinch so'zlash sur'ati — bularning barchasi ma'no tashiydi va inson shaxsiyatining bir qismi hisoblanadi. SI bilan doimiy muloqot bu nozik jihatlarning asta sekin yo'qolib borishga sabab bo'lishi mumkin. Tilshunoslar “tillarning o'limi” hodisasini asrlar davomida kuzatib kelishgan. Bunda kuchli til zaif tilni siqib chiqaradi. Endi esa yangi bir xavf paydo bo'lmoqda: tillar rasmiy jihatdan saqlanib qolishi mumkin, ammo ularning ichki rang-barangligi, sheva xususiyatlari va jonli ifoda boyligi «silliq» SI nutqi ta'sirida so'nib borishi ehtimoli bor. Bu o'ziga xos “ichkaridan so'nib borish” jarayoni bo'lib, uni tashqaridan ilg'ash qiyin, ammo avlodlar almashinuvi bilan uning oqibatlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Sun'iy intellekt tizimlarining muloqot madaniyatiga ta'siri — bu faqat texnologik masala emas, balki insoniyatning o'z-o'zini anglash va rivojlantirish bilan bog'liq jarayondir. Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan dalillar shuni ko'rsatadiki, SI bir tomondan muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda, til o'rganishda va savodxonlikni oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilsa. Ikkinchi tomondan unga haddan tashqari bog'lanib qolish inson tafakkurining rivojiga, plyuralistik fikrlash qobiliyatiga, shaxslararo muloqot jarayoniga va milliy til merosining saqlanib qolishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bois bu masalaga nisbatan jamiyatning, ayniqsa ta'lim tizimining yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. SI ni o'quv jarayonida uni qoralash butunlay voz kechishni targ'ib qilish yoki bo'lmasa undan istaganicha erkin foydalanishga ruxsat berish ham oqilona yechim bo'la olmaydi. Eng asosiy maqsad — texnologiyadan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish, ya'ni SI ni insonning o'rnini bosuvchi kuch sifatida emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qabul qilishga o'rgatishdir. Xuddi qalam yozishni o'rgatmasa-da, yozishga yordam bergani kabi, SI ham fikrlashni o'rgatmaydi — u faqat fikrlashga tayyor bo'lgan insonga xizmat qilishi kerak. Bu farqni anglagan jamiyat texnologik taraqqiyotdan yutadi, anglamagan jamiyat esa unda yutqazadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Floridi L., Cows J., Beltrametti M. An ethical framework for a good AI society: Opportunities, risks, principles, and recommendations // *Minds and Machines*. — 2018. — Vol. 28. — P. 689.
2. Faverio, M., & Sidoti, O. (2025). *Teens, Social Media and AI Chatbots 2025*. Pew Research Center. <https://www.pewresearch.org/internet/2025/12/09/teens-social-media-and-ai-chatbots-2025/>
3. Леонтьев А.А. Психология общения. — 3-е изд. — М.: Смысл, 1999. — 365 с.
4. Chomsky, N. *Aspects of the Theory of Syntax*. MIT Press. — P. 5
5. Rahimov B.T. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni // *Ta'lim va tarbiya*. — 2023. — № 1. — B. 18
6. Bharadwaj P., Shaw C., NeJame L. et al. *Time for Class 2023: Bridging Student and Faculty Perspectives on Digital Learning*. — Tyton Partners, 2023. — 34 p.
7. Turkle S. *Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other*. — New York: Basic Books, 2011. — 360 p.